

**TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA  
YO'NALТИРИШДА МАКТАБ PSIXOLOGINING О'RNI**

*Qo'shoqova Dilrabo Egamberganovna  
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 32- maktab psixologи*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada yosh avlodni kasb hunarga bo,,lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni kasbiy bilimlarini oshirish va to,,g“ri kasb tanlashlari, hamda maktab psixologlarining bu boradagi o,,rni va ahamiyati to,,g“risida fikr mulohazalar, takliflar keltirib o,,tilgan.Ta'lismiz o'quvchilarga nafaqt bilim, balki jamiyatga mos kasb-hunarni tanlash, o'zlarining qobiliyatlarini anglash va kelajakda o'zining ijtimoiy rolini bajarishga tayyorlanish imkonini yaratadi. Ta'lismiz muassasalarida o'quvchilarga kasb-hunar tanlashda yordam berish – ta'lismiz jarayonining ajralmas qismidir. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilar, ota-onalar, shuningdek, maktab psixologining o'rni juda muhimdir. Maktab psixologi o'quvchining shaxsiy, ijtimoiy va psixologik holatini inobatga olgan holda, ularni kasb-hunar tanlashda yo'naltirishda asosiy rol o'ynaydi.Shuning uchun ham maqolada shular haqida ma'lumotlar berdim.

**Kalit so'zlar:** Kasb kasb tanlash, oilaviy stereotip, qobiliyat, bilim , ko'nikma, ijtimoiy motiv, oilaviy motiv, Kasb-hunarga yo'naltirish, maktab psixologi, o'quvchilarni kasbga yo'qotish, ta'lismiz jarayonlari, kasb tuzatish jarayoni, kasbiy jarayonlarni, pedagogik maslahatlar, o'quvchilar motivatsiyasi.

Kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o`z-o`zini o`zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy ne`matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o`xshash. Xar qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma`lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo`lib, u avvalo o`sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o`zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo`ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi. Tashki kasbiy faoliyat shaxsni o`rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarini o`zgartirishga qaratilgan faoliyat bo`lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo`lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli

faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro`y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam bo`ladi. Agar o`ylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo`lgani bilan uning peshonalari, ko`zлari, xattoki, qo`l xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to`xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mammuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o`quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligin aniqlab, so`ngra kasbga yo`llash kerak. Kasbga yo`naltirish - bu ilmiy asoslangan va o`zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o`zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg`un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir.

Kasb-hunarga yo`naltirishda o`quvchilarning ma`naviy-axloqiy fazilatlari bilan birga ular tanlayotgan sohaga layoqati qay darajada muvofiqligini aniqlash, bu borada fan o`qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining shaxsiy namunasi va hamkorligini mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi.

O`quvchilarning kasb-hunar haqidagi tasavvurini kengaytirish va qiziqishini aniqlash maqsadida xalq ta`limi tizimida o`qitilayotgan 18 ta umumta`lim fanlari bo`yicha Milliy o`quv dasturi doirasida yaratilayotgan zamonaviy darsliklarga 302 ta kasbga oid mavzular kiritildi. Dars jarayonida mazkur kasblar haqidagi tushunchalar o`quvchilarga hayotiy misollar orqali yetkazilmoqda. Bu esa, o`z navbatida, o`g'il-qizlarning hunar egallash va o`zini o`zi band qilish orqali xizmatlar ko`rsatish (frilansing) yo`nalishiga qiziqishini aniqlashga ko`maklashayotir.

Kasb egalarining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish uchun turli uchrashuv va sayyor mashg`ulotlar tashkil etilayotgani bolalarning sohalar haqidagi tasavvurini boyityapti. Jumladan, yil davomida 9-11-sinf o`quvchilari uchun ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va agrotexnologiya yo`nalishidagi korxona va tashkilotlarga 34 mingga yaqin ekskursiya tashkil etildi.

O`g'il-qizlarning kelajakda munosib kasb egasi bo`lishiga ko`maklashish maqsadida [kasb.maktab.uz](http://kasb.maktab.uz) va [profnavigator.uz](http://profnavigator.uz) elektron platformalarida testlar majmuasi berilgan. Ular orqali o`quvchilar o`zining qaysi kasbga qobiliyatli ekanini aniqlashi mumkin. O`quvchilarni zamonaviy kasblarga yo`naltirish va o`qitish uchun “Milliy ta`lim resurslari”da 25 dan ziyod zamonaviy sohani o`rgatuvchi 700 dan, “[kasb.maktab.uz](http://kasb.maktab.uz)”da 500 dan, “[profnavigator.uz](http://profnavigator.uz)”da 450 dan ortiq videodarslik, videokontent, taqdimot hamda professiogramma joylashtirilgan. Ayni paytda

o‘quvchilar mazkur manbalardan unumli foydalaniб, o‘zini qiziqtirgan kasblar haqida batafsil ma’lumot olish bilan birga ushbu kasblarni o‘rganish imkoniyatiga ham ega. Jumladan, umumta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkazildi. Natijada 4 mingga yaqin bitiruvchi ishga joylashdi, 14 ming 129 nafar yigit-qiz o‘zini o‘zi band qilish tartibi bo‘yicha hunar bilan shug‘ullanmoqda. Qariyb 8 ming bitiruvchiga hunarmandlik va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun 114,2 milliard so‘m kredit ajratildi. Har bir kasb egasi murabbiy ko‘magida kamolga yetadi. Hunar egallash istagidagi o‘quvchilarni ustozga biriktirish orqali sohaga oid zarur tajriba va mahoratini shakllantirish, bilim va ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin. Shu bois, umumta’lim maktablarining 10-11 sinfida ta’lim olayotgan 124 ming 374 nafar o‘g‘il-qizning kelgusida kasbni to‘g‘ri tanlashiga ko‘maklashish maqsadida 60 ming 237 nafar ota-onasiga “ustoz-shogird” an’anasi asosida 32 ta kasb bo‘yicha o‘quvchilarni shogirdlikka olish istagini bildirgan.

Kasb-hunar tanlash jarayoni O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish – bu o‘quvchilarning qobiliyatları, qiziqishlari va ijtimoiy-psixologik holatlari asosida amalga oshiriladigan uzlusiz jarayondir. O‘quvchilar boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab o‘zlarini qiziqtirgan sohalarni anglashlari mumkin, ammo to‘liq kasb tanlash jarayoni o‘rta maktab bosqichida boshqacha shakllanadi. O‘quvchilar kelajakda qanday yo‘nalishlarni tanlashlari, qanday kasblarda o‘zlarini ko‘rishlari haqida fikr yurita boshlaydilar. Kasb tanlashda o‘quvchining bilim va qobiliyatları, ijtimoiy muhit, oilaning ta’siri va boshqa bir qator omillar katta rol o‘ynaydi. Ba’zan o‘quvchilar oilaviy talablar va jamiyatning stereotiplari asosida qarorlar qabul qilishadi, bu esa ularning haqiqiy istaklarini yoritmasligi mumkin. Maktab Psixologining O’rni Maktab psixologining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarni shaxsiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishdir. O‘quvchilarning psixologik holatini tahlil qilish, ularni kasb-hunar tanlashga tayyorlash va bu jarayonda yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish psixologning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

1. Shaxsiy xususiyatlarni tahlil qilish maktab psixologi o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda ularga yordam beradi. Shaxsiy xususiyatlar, ya’ni qobiliyatlar, qiziqishlar, ehtiyojlar va qadriyatlar, kasb tanlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Psixologlar o‘quvchilarning shaxsiyatini chuqur tahlil qilish orqali, ularning qaysi kasblarga qiziqishini va ularga mos keladigan sohalarni aniqlashlari mumkin. Psixologik testlar va metodlarni qo’llash orqali o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini aniqlashda yordam berish mumkin.

2. Psixologik testlar va baholash o‘quvchilarga kasb-hunar tanlashda yordam berish uchun psixologlar turli psixologik testlar va metodlardan foydalananadilar. Bu testlar o‘quvchining intellektual darajasini, qobiliyatlarini, xarakterini va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. O‘quvchining tanlovlari uning psixologik

holati bilan bevosita bog'liq, shuning uchun psixologlar ularga kasb-hunar tanlashda yordam beradigan aniq tavsiyalar berishadi.

3. Kasbga yo'naltirish darslari va dasturlar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga doir maxsus darslar va dasturlar tashkil etish ham muhimdir. Maktab psixologi kasb-hunar haqida ma'lumot beruvchi uchrashuvlar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishi mumkin. Bu darslarda o'quvchilarga turli kasblar, ularning talablari, karyera imkoniyatlari va ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Kasb tanlashda o'quvchining qiziqishlari, moyilliklari va xohishlari e'tiborga olinadi.

4. Oilaviy hamkorlik o'quvchining kasb-hunar tanlashida oilaviy muhitning o'rni beqiyosdir. Ko'pincha oila o'quvchilarning kasb tanlashida jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab psixologi oilalar bilan yaqindan ishlash orqali o'quvchining qarorlarida yordam berishi mumkin. Psixologlar o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini oilaga tushuntirish, ularni o'quvchining istaklariga qarshi turmaslikka va qo'llab-quvvatlashga undaydi.

5. Stressni boshqarish va qaror qabul qilish Kasb-hunar tanlash jarayoni ko'plab o'quvchilar uchun stressli bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'zlarining kelajagi uchun katta qarorlar qabul qilishi kerak, bu esa ularni qiynashi mumkin. Psixologlar o'quvchilarga stressni boshqarish usullarini o'rgatish, qaror qabul qilish jarayonini osonlashtirishga yordam berishadi. O'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini aniqlash, to'g'ri va ongli qarorlar qabul qilishda yordam berish maktab psixologining yana bir muhim vazifasidir.

Xulosa Maktab psixologi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda juda katta o'ringa ega. Ularning psixologik holatini tahlil qilish, shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, kasb-hunar tanlashda yordam berish, oilalar bilan hamkorlikda ishslash va stressni boshqarish kabi vazifalar psixologlarning asosiy faoliyatini tashkil etadi. O'quvchilarni to'g'ri yo'naltirish, ularning kelajagi uchun zarur bo'lgan qobiliyat va malakalarni rivojlantirishda maktab psixologining o'rni ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasb-hunarga yo'jismoniyishning milliy ta'minoti to'g'risida"gi qarorlari. "2030-yilgacha bo'lgan ta'limni rivojlantirish
2. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2-е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
3. Nabijanova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
4. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiyl psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. - 97 b
4. G'oziev E.G'. Ontogenet psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.
5. Vygotskiy LS "Psixologiyaning asosiy masalalari".
6. Davletshin RR "Pedagogik psixologiya va tarbi

7. O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan nashr etilgan ilmiy psixologiya bo'yicha to'plamlar.
8. G'ulomov B., Karimova G. "O'quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasini kuzatish".xalqaro sanoat: OECD tomonidan chop etilgan "Care

